



IQTISODIY INQIROZLARDAN CHIQISH STRATEGIYALARI STRATEGIES FOR OVERCOMING ECONOMIC CRISIS

¹Raximov Azizbek
Ayubjon o'g'li
²Zakirova Sayyora
Alimovna

¹O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

E-mail: azizbekraximov@gmail.com. ²O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, Iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Annotatsiya Annotation

Uzb - Ushbu maqolada iqtisodiy inqirozdan chiqish strategiyalari va ularning davlat siyosatiga, moliyaviy islohotlarga va biznesga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, qisqa va uzoq muddatli inqirozlardan chiqish bo'yicha yondashuvlar keltirilgan.

Eng - This article analyzes strategies for overcoming economic crises and their impact on public policy, financial reforms, and business. It also presents approaches to overcoming short- and long-term crises.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *iqtisodiy inqiroz, davlat siyosati, moliyaviy islohotlar, biznes, investitsiya, tarixiy taqqoslash, statistik tahlil.*
❖ *economic crisis, public policy, financial reforms, business, investment, historical comparison, statistical analysis.*

Kirish.

Iqtisodiy inqiroz - bu iqtisodiyotning barqaror rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan tanazzul hisoblanib, u ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, ishsizlikning oshishi, inflyatsiyaning tezlashishi bilan tavsiflanadi. Bunday inqirozlar odatda iqtisodiy tsiklning ajralmas qismi hisoblanib, turli omillar ta'sirida vujudga keladi [1].

Tarix davomida ko'plab iqtisodiy inqirozlar kuzatilgan. Xususan, 1929-1933-yillardagi Buyuk Depressiya, 2008-yildagi Global moliyaviy inqiroz hamda pandemiya sababli yuzaga kelgan COVID-19 inqirozi jahon moliyaviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatgan inqirozlar hisoblanadi. Ushbu inqirozlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda davlat siyosatining muhim ekanligini yana bir bor

namoyon etdi.

Zamonaviylashib, texnologiyalar bilan boyib borayotgan dunyoda iqtisodiy inqirozlarning yuzaga kelish riski ortib bormoqda. So'nggi yillarda geosiyosiy keskinliklar, COVID-19 pandemiyasi tufayli moliyaviy bozorlarda beqarorlik holatlari kuzatilishi natijasida iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelmoqda. Hozirgi kunda inflyatsiyaning o'sishi va davlat qarzlarini samarali boshqaruvini yo'lga qo'yish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy inqirozdan chiqish strategiyalarini o'rganish va samarali choralarni ishlab chiqish muhim masalaga aylanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etish va

barqaror iqtisodiy o'sishga erishish masalasi iqtisodchilar tomonidan uzoq yillar davomida o'rganib kelingan. Turli iqtisodchilar bu borada o'z yondashuvlarini ilgari surgan hamda ualrdan hozirgi kunda inqiroz holatlarini yumshatish maqsadida davlat siyosati va iqtisodiy strategiyalarni belgilashda foydalanib kelinmoqda. Quyida iqtisodiy inqirozlardan chiqish strategiyalari bo'yicha uchta yetakchi iqtisodchining qarashlari va ularning iqtisodiyotga ta'siri ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiy inqiroz sharoitida davlatning faol ishtirokini ta'kidlagan yetakchi iqtisodchilardan biri Jon Meynard Keynes hisoblanadi. Uning 1936-yilda chop etilgan "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" nomli asarida iqtisodiy depressiya sharoitida davlat aralashuvining iqtisodiyotdagi zaruriyati asoslangan. Keynes qarashlariga ko'ra, bozor iqtisodiyoti o'zini-o'zi talab yetarlicha shakllanmagan sharoitda muvozanatlashtira olmaydi. Keynes nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy inqirozdan chiqishning asosiy yo'li bu davlat xarajatlarini oshirish va fiskal siyosat orqali talabni rag'batlantirishdir. Hukumat inqiroz davrida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, ijtimoiy dasturlarni kengaytirish va ish o'rinlarini yaratish orqali umumiy talabni oshirishi mumkin. Shuningdek, davlat iqtisodiyotni tabiiy o'sish bosqichiga yetguncha qo'llab-quvvatlashi lozim. Keynes yondashuvi 1929-1933-yillardagi Buyuk depressiya davrida AQSh va Buyuk Britaniya iqtisodiy siyosatida qo'llanilgan va keyinchalik ko'plab davlatlarda iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi sifatida qabul qilingan [3].

Keynsning davlat aralashuvi bo'yicha g'oyalari keng qo'llanilgan bo'lsa-da, 1970-yillardan boshlab, Milton Fridman tomonidan ilgari surilgan monetarizm nazariyasi iqtisodiy inqirozlardan chiqishda qo'llana boshlandi. Fridmanning fikricha, iqtisodiyotning uzluksiz o'sishini ta'minlash uchun davlat aralashuvi emas, balki pul-kredit siyosati asosiy vosita bo'lishi kerak. Fridmanning pulning miqdoriy

nazariyasiga ko'ra, inflyatsiyaning asosiy sababi pul massasining ortiqcha o'sishi hisoblanadi. Shuning uchun markaziy banklar pul ta'minotini qat'iy nazorat qilish orqali inflyatsiyani oldini olishi lozim. Bundan tashqari, Fridman ushbu nazariyada davlat iqtisodiyotga ortiqcha aralashishi bozor samaradorligini pasaytiradi deb ham ta'kidlagan. Keynes nazariyasiga Milton Fridman qarshi fikr bildirgan, ya'ni iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun davlat xarajatlarini oshirish emas, balki pulning qiymatini barqarorlashtirish muhim hisoblanadi. Milton Fridman yondashuvi 1980-yillarda AQSh va Buyuk Britaniyada qo'llanilgan bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va inflyatsiyani nazorat qilishda qo'llanilgan [4].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'llari haqida Ragnar Nurkse "Rivojlanmagan davlatlarda kapital jamg'arish muammolari va iqtisodiy o'sish nazariyasi" nomli asarida iqtisodiy rivojlanish uchun investitsiyalar va kapital jamg'arishning o'rni haqida fikr bildirgan. Nurkse nazariyasiga ko'ra, kam daromadli mamlakatlar kapital yetishmovchiligi tufayli rivojlana olmaydi hamda jamiyat daromadi past bo'lsa, u jamg'arma qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, bu esa investitsiyalarni cheklaydi va natijada iqtisodiy o'sish sustlashadi. Davlat inqirozdan chiqish uchun kapital jamg'arish jarayoniga yordam berishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etishi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishi kerak. Nurkse nazariyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun qo'llanilgan, ayniqsa, Osiyo va Lotin Amerikasida muhim ahamiyat kasb etgan [5].

Ushbu nazariyalar iqtisodiy inqirozlardan chiqish yo'llarini shakllantirishda hozirgi davrda ham muhim o'rin tutadi. Shuningdek, har bir yondashuv o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega bo'lib, ular turli iqtisodiy vaziyatlardan kelib chiqib qo'llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada iqtisodiy inqirozdan chiqish strategiyalari nazariy tahlil metodi asosida o'rganildi. Turli mamlakatlarning iqtisodiy inqirozdan chiqish bo'yicha tajribalari va strategiyalari taqqoslanib, ularning samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiy inqirozdan chiqish bo'yicha Keynes, Fridman va Nurkse nazariyalari turlicha yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu nazariyalar tarixiy tajriba bilan solishtirilganda, ularning samaradorligi turli iqtisodiy sharoitlarga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Keynes nazariyasi iqtisodiy inqiroz sharoitida qisqa muddatli yechim sifatida eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan infratuzilma loyihalariga katta mablag' ajratilishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va pul-kredit siyosatini yumshatilishi iqtisodiyotni tiklashga ko'maklashadi. Milton Fridman yondashuvi uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, 1970-yillarda stagflyatsiya muammosi bilan yuzlashgan AQSh va Buyuk Britaniya hukumatlari monetaristik yondashuvni qo'llab, inflyatsiyani pasaytirish uchun pul massasini nazorat qilish siyosatini olib bordi. Natijada, inflyatsiya darajasi pasaytirildi, biroq qisqa muddatli iqtisodiy faollik proporsional ravishda kamaydi.

Ragnar Nurkse nazariyasi esa rivojlanayotgan davlatlar uchun ahamiyatlidir. Uning kapital jamg'arish borasidagi qarashlari Janubiy Koreya, Singapur va Tayvan tajribalarida qo'llanildi. Ushbu mamlakatlar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishish uchun sanoatlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishga e'tibor qaratgan.

Iqtisodiy inqiroz sharoitida yuqoridagi yondashuvlardan qay birini qo'llash iqtisodiy holat va muammolarga bog'liq hisoblanadi. Keynes modeli talab yetishmovchiligi bo'lgan iqtisodiy inqirozlarda samarali hisoblanadi. Davlatning xarajatlarni oshirish orqali iqtisodiy

faollikni rag'batlantirishi qisqa muddatda o'z samarasini berishi mumkin. Fridmaning monetarizm nazariyasi esa uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir. Inflyatsiya riski yuqori bo'lsa, pul massasini nazorat qilish orqali narxlar barqarorligi saqlanadi. Nurkse modeli kapital yetishmovchiligi va investitsiya muammolari bo'lgan mamlakatlar uchun mos keladi. Davlat va xususiy sektorning investitsiyalarni rag'batlantirishi iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

Iqtisodiy inqirozdan chiqish strategiyalarini tahlil qilish davomida turli iqtisodiy nazariyalarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli davrlarda yuzaga kelgan inqirozlar va ularga nisbatan qo'llangan strategiyalarni solishtirish orqali qaysi yondashuv qaysi sharoitda samarali ekani haqida xulosa qilish mumkin. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, inqirozdan chiqish uchun har bir mamlakat o'z iqtisodiy holatiga mos strategiyani tanlashi kerak.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiy inqirozlar har bir davrda turli sabablarga ko'ra yuzaga kelgan bo'lib, ulardan chiqish strategiyalari ham turlicha bo'lgan. Maqolada iqtisodiy inqirozlardan chiqish bo'yicha uchta asosiy nazariya tahlil qilindi. Biroq, ushbu yondashuvlarning hammasi ham barcha holatlarga mos kelmasligi mumkin.

Tarixiy misollar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun har bir mamlakat o'zining iqtisodiy sharoitiga mos yondashuvni tanlashi kerak. Buyuk depressiya davrida AQSh Keynes modelidan foydalangan bo'lsa, 1970-yillardagi stagflyatsiya davrida monetaristik yondashuv qo'llanilgan. Osiyo mamlakatlari esa Nurkse tamoyillari asosida iqtisodiy rivojlanishga erishgan. Shu sababli, inqirozdan samarali chiqish uchun fiskal va monetar choralarni integratsiyalash, xususiy sektorni rag'batlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida yangi tahdidlar (pandemiya, geosiyosiy ziddiyatlar va ekologik muammolar) inqirozlarning yanada murakkablashishiga olib kelmoqda. Shu bois, kelajak tadqiqotlari raqamli iqtisodiyot, yashil moliyalashtirish va

transmilliy inqirozlar ta'siri kabi yo'nalishlarga qaratilishi lozim. Zamonaviy iqtisodiy muammolarga mos yangi yondashuvlar ishlab chiqilishi global iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Muhammadiyev, N. H. (2018). Iqtisodiy inqiroz va innovatsion strategiyalar. Qarshi: Nasaf Nashriyoti.*
2. *Jon Meynard Keynes – The General Theory of Employment, Interest, and Money (1936).*
3. *Milton Fridman – A Monetary History of the United States (1963).*
4. *Ragnar Nurkse – Problems of Capital Formation in Underdeveloped Countries (1953).*
5. *Xalikova L. N., Mavlonova U. R. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi //O'quv uslubiy qo'llanma.*